

SOQ'LIQNI SAQLASHNI TASHKIL ETISHDA GERANTOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

Ruzimurotova Yulduz Shomurotovna

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti Jamoat salomatligi va
sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasida assistenti*

Saydaliyeva Mohira Zayniddin qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Tibbiy profilaktika fakulteti 5 kurs talabasi*

Annotatsiya: Soq'liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biri, odam umrini uzaytirish va aholini salomatligini yaxshilashdir. So'ngi yillarda covid va uning oqibatlari natijasida juda ko'plab insonlarning yostig'i quridi. Juda ko'plab odamlar turli xil kasalliklar bilan og'rib umri qisqarib bormoqda. Jahondagi barcha mamlakatlarda demografik ko'rsatkichlar qariyalar hisobiga oshib bormoqda. Bu esa "Gerontologiya" va "Geriatrya" sohasidagi bilimlar doirasini kengaytirishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: Gerontologiya, Geriatrya, Gerogigiyena, Gerontopsixologiya, Gerodermiya, Gerodietetika, Geroekologiya, Fiziologik qarish, Miokard, morfologik

Muammoning dolzarbliigi: "Gerontologiya"ning asosiy maqsadi insonning faol va to'laqonli hayotini uzaytirish yo'llarini izlab topishdir. Keksa yoshdagi bemorlarga xizmat qilish aksariyat tibbiyot xodimlarining kundalik vazifasi, chunki tibbiy xizmatga muhtoj barcha bemorlarning 25-30 foizi keksa yoshdagi bemorlardir. Gerontologiya fani quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Qarish biologiyasi.
2. Geriatrya.
3. Gerogigiyena.
4. Gerontopsixologiya.
5. Gerodermiya.
6. Gerodietetika.
7. Geroekologiya.

Keksalik umrning qonuniy tarzda yuz beradigan yakunlovchi davridir. Biroq muddatidan oldin qarish hodisasi ham hayotda bor haqiqatdir. Shu sababdan S. P. Botkin va I. I. Mechnikovlar fiziologik va barvaqt qarish mavjudligi haqidagi tushunchalarni yoqlab chiqqanda haq edilar. Barvaqt qarish boshdan kechirilgan kasalliklar yoki tashqi muhitning zararli omillari ta'sirida yosh bilan bog'liq o'zgarishlarning bir muncha erta rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Fiziologik qarish aqliy va jismoniy sog'lomlikni, ma'lum darajadagi ish qobiliyatini, dangaslikni,

tevarak atrofdagi hodisalarga qiziqishni saqlab qolish bilan belgilanadi. Tashqi muhit ta'siri va organizmning ichki omillari qarish jarayonining tezlashuviga, organizmning erta qarishiga olib keladi, bu jarayon organizmning o'sish va rivojlanishi to'xtaganidan keyin boshlanadi. "Gerontologiya" tibbiy biologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u molekula va hujayralardan tortib butun organizmining qarish sabablarini o'rganadi. Qarish - qarilik, ya'ni yosh ulg'aya borishi bilan organizmda paydo bo'ladigan o'zgarishlarning qonuniy tarzda ro'y berish jarayonidir. Umuman olganda, bugungi kunda qarilik muammolarini har tomonlama o'rganadigan turli fan sohalari paydo bo'ldi va ular jadal rivojlanmoqda. Xususan, dunyo aholisi sonining qariyalar hisobiga oshishi "Geriatrya" fanining rivojlanishini yanada tezlashtiradi. Geriatrya keksa, yoshi ulug' kishilarda kasallikning kechishi xususiyatlarini o'rganadigan fan bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi amaliyotiga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Gerogigiyena esa keksaygan va katta yoshdagi kishilar gigienasini o'rganmoqda. 6 "Gerontopsixologiya" keksalar ruhiy holati va fe'l-atvorini; "Gerodietetika" keksaygan kishilar ovqatlanishi va uning xususiyatlarini; "Gerodermiya"-keksaygan kishilar teri qoplami xususiyatlarkni o'rganuvchi bo'lim. Geroekologiya qarish jarayoniga ekologik omillarning ta'sir etishini o'rganuvchi fan. Bugungi kunda jahonda genetik olimlarning chuqur izlanishlari natijasida, qarish jarayoniga ta'sir etuvchi genlar borligi taxmin qilinmoqda. Agar bu taxmin tasdiqlansa, "Gerontologiya" fanida keskin o'zgarishlar yuz berishi va insonning hozirdan ham uzoqroq umr ko'rishiga erishiladi. Genetikaning rivojlanishi juda ko'p geriatric kasalliklarning kamayishiga sabab bo'ladi.

Gerontologiya fani oldida bir qancha muammolar turibdi. Masalan:

- Ovqatlanish tartibining buzilishi
- Tug'ilish-o'lim o'rtasidagi uzviylikning yo'qolishi
- Ota-onalarning farzandlari tomonidan e'tiborsiz qoldirilayotganligi
- Ijtimoiy sohaga jalb etilishdagi yosh ko'rsatkichi

Bizning yurtimiz ham nafaqa yoshidagi bo'lgan fuqaolarga alohida e'tibor bilan qaraydi. 2002-yil "Qariyalarni qadrlash yili", 2015-yil esa "keksalarni e'zozlash yili" deya e'lon qilinganligi ham buning yaqqol isboti sifatida qaraladi.

Respublikada qariyalar va nogironlar uchun maxsus g'amxo'rlik uylari mavjud. Hozirgi kunga kelib bunday muassasalar soni respublikamizda 29 taga yetgan va unda 6 mingga yaqin qariyalarga g'amxo'rlik qilinmoqda. bu raqam bilan faxrlanish albatta milliy urf-odatlar qadrlanadiga, qariyalarga alohida e'tibor berilishi kerakligi uqtirilib tarbiyalanadigan o'zbek xalqi uchun ayanchlidir. Ammo ming afsuslar bo'lsinki, demografik jarayonlardagi oxirgi 30 yilga yaqin vaqt ichidagi o'zgarishlar, aholi yosh tarkibida qariyalarning o'lishi oshishiga olib kelmoqda va bu hali uzoq davom etadi.

Xulosa: Aholi sonining qariyalar hisobiga ortib borishi geriatric yordamini to'g'ri tashkil qilish, uning tibbiy va ijtimoiy asoslarini bilishni taqozo etadi. Qariyalarga yor

dam ko'rsatish, sog'liqlarini tiklash faqat tibbiy choralar bilan cheklanib qolmay, balki masalaga ijtimoiy nuqtai nazardan yondosh ishni talab qiladi. Yolg'iz yashaydigan, o'ziga-o'zi xizmat qila olmaydigan qariyalar uchun qariyalar uyi tashkil qilingan bo'lib, ularda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Geriatriyada qon aylanish doirasining yoshga aloqador o'zgarishlari va kasalliklari, qon tomirlarning morfologik o'zgarishlari kuzatiladi. Yirik qon tomirlar devarlarida sklerotik, o'zgarishlar, muskul qavatining atrofiyasi va elastikligining susayishi namoyon bo'ladi. Bu esa qon tomirlarining kengayishi va qisqarish qobiliyatini pasaytirib, qon aylanishini izdan chiqaradi, arterial bosim ko'tariladi. Miokarddagi sklerotik o'zgarishlar yurak qisqarishlarini kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan qarilik yoshidagi ayollar organizmini zo'rqiqtimaydigan jismoniy mashqlar, sekin-asta piyoda yurish, tez va oson hazm bo'ladigan ovgatlarni ichak faotiyatini tartibga soluvchi oziq va moddalarni iste'mol qilishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilishlari ko'proq toza havoda sayr qilishlari lozim, Kasal bo'lib yotib qolgan paytlarida yotoq yaralarining oldini olish parvarishlarini, o'pka ventilyasiyasini kuchaytirish mashqlarini hamshira yordamida bajarishlari kerak. Bu borada ayniqsa, qarovchisi bo'lmagan qariyalarning uylariga doimiy ravishda sog'ligini nazorat qilish, kerakli ham shiralik parvarishini tashkillashtirish maqsadida maxsus hamshiralalar biriktirilishi maqsadga muvofiqdir. Qadriyatlar qadrlanadigan yurtda bugungi yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor kuchaytirilmas ekan qariyalar uyi yoki boshqacha aytganda g'amxo'rlik uylariga ehtiyoj talab ortib boraveradi. Shu o'rinda keltirish joizki, qariyalar miqdorining ko'payib borishi, nafaqat g'amxorlik uylarini ko'paytirishni, balki qariyalar bilan ishlovchi alohida mutaxassislarni (tibbiyot, ijtimoiy, pensiya ta'minoti v.h.) tayyorlashni, Gerontologiya sohasida tadqiqotlarni ko'paytirish va ularni qo'llab quvvatlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. A. Filatova, L. P. Bezdenejnaya, L. S. Andreeva «Gerontologiya» Rostov –na – Donu 2009.
2. Rizaev J. A., Ruzimurotova Y. S., Khaydarova G. A. THE IMPACT OF SOCIAL AND HEALTH FACTORS AT WORK AND AT HOME ON NURSES'HEALTH //Вестник магистратуры. – 2022. – №. 2-1 (125). – С. 10-12.
3. Рuzимуратова Ю. Tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatayotgan hamshira ayollarning sog'lig'iga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 270-281.
4. Shomurotovna R. Y. COMPREHENSIVE ANALYSIS OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL MALADAPTATION QUALITY AND HEALTH STATUS OF NURSING //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 47-48.

5. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATDA SALOMATLIKKA TASIR QILUVCHI XAVF OMILLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 3. – С. 160-164.
6. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. SOG'LOM OVQATLANISH TAMOYILLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 134-137.
7. Shomurotovna R., Muminovna A. Socio-hygienic Study of the Health, Lifestyle and Working Conditions of Health Workers //Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Т. 161. – №. 2. – С. 165-170.
8. Sharofitdinovna N. P., Shomurotovna R. Y. FARINGIT KASALLIGI HAMDA UNING OLDINI OLISH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 5. – №. 1. – С. 169-174.
9. Ризаев Ж. А., Рузимуротова Ю. Ш., Тураева С. Т. Влияние социально-гигиенических факторов труда и быта на здоровье медицинских сестер //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 922-926.
10. Mamasolieva Shoxista Abdugapparovna, & Israilova Sohiba Buribaevna. (2023). TA'LIM-TARBIYA SOHASIGA YANGICHA YONDASHUV — BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI. Лучшие интеллектуальные исследования, 5(1), 3–8. извлечено от <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/519>
11. .Guli Nurmuminovna Gapparova, & Mamasoliyeva Shoxista Abdugapparovna. (2023). BOLALARDA URIKOZURIK NEFROPATIYANI KLINIKO-LABORATOR DIAGNOSTIKASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 5(1), 13–19. извлечено от <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/521>